

PITIRIM SOROKINING SOTSIAL STRATIFIKATSIYA VA SOTSIAL MOBILLIK NAZARIYALARI TAHLILI

Ravshanova Sitoraxon Xaitali qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11218505>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Pitirim Sorokin ijodiga tegishli sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyalarining tahlili bayon etilgan. Maqolada real tabaqalanish hodisalari vaqti-vaqti bilan jamiyatdan jamiyatga qanday o'zgarishini tushunish uchun uning dolzarbligi va jamiyatning tabaqalanish tuzilmaviy holatlari va o'zgarishlarining sabablari, shaxsiy va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishni takomillashtirish, tabaqalanish tizimlarining o'zgarishi kabilar tavsiflangan.

Kalit so'zlar: Stratifikatsiya nazariyasi, mobillik, ijtimoiy tabaqalanish, "Davlat", "Qonunlar", "Siyosat", Pitirim Sorokin, Aristotel.

ANALYSIS OF PITIRIM SOROKIN'S THEORIES OF SOCIAL STRATIFICATION AND SOCIAL MOBILITY

Abstract. This article describes the analysis of theories of social stratification and social mobility related to Pitirim Sorokin's work. In order to understand how real stratification events change from time to time from society to society, the article describes its relevance and the reasons for the structural conditions and changes of society, improvement of the analysis of personal and social consequences, changes in stratification systems.

Key words: Stratification theory, mobility, social stratification, "State", "Laws", "Politics", Pitirim Sorokin, Aristotle.

АНАЛИЗ ТЕОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ СТРАТИФИКАЦИИ И СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ ПИТИРИМА СОРОКИНА

Аннотация. В данной статье представлен анализ теорий социальной стратификации и социальной мобильности, связанных с творчеством Питирима Соркина. Чтобы понять, как реальные события стратификации время от времени меняются от общества к обществу, в статье описываются ее актуальность и причины структурных условий и изменений общества, совершенствование анализа личностных и социальных последствий, изменений стратификационных систем.

Ключевые слова: Теория стратификации, мобильность, социальная стратификация, «Государство», «Законы», «Политика», Питирим Сорokin, Аристотель.

Stratifikatsiya tushunchasi «stratum» – qatlam, «facio» – amalga oshiraman so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, u sotsiologiyaga geologiyadan kirib kelgan va bevosita jamiyat hayotini xuddi yer strukturasi kabi turli qatlamlardan tashkil topganini ifodalaydi.

Stratifikatsiyaning geologik talqinida yer qatlamlari bir-biri bilan munosabatga kirishi to‘liq aks etmasada, jamiyatdagi mavjud sotsial qatlamlar dinamik holatdagi o‘zaro munosabatlarga egadir. Stratifikatsiya o‘zida struktur notenglikni mujassamlashtiradi.

Stratifikatsiya nazariyasi notenglik tamoyilining ustiga qurilgan, ya‘ni jamiyat hayoti boylar va kambag‘allar, imtiyozlilar va imtiyozsizlar toifasiga ajraladi. Zamonaviy sotsiologlar stratifikatsiya jarayonlari o‘zida katta sotsial guruhlarning ijtimoiy notengligini mujassamlashtirganligini deyarli yakdillik bilan ta‘kidlaydilar va uni vujudga kelishi sabablari hamda mezonlarini esa turlicha talqin qiladilar. Bu holat ushbu guruhlar a‘zolik va notenglikni tarannum etuvchi mafkura tomonidan qo‘llab-quvvatlanish bilan bog‘liqdir. Sotsiologiya bu masalada sotsial guruhlarni o‘rganadi. Chunki bu guruhlar ierarxiyani tashkil etadi va sotsiolog notenglik shakllanganligi va uni doimo saqlanib qolishiga javob izlaydi.[1]

Demak, sotsial stratifikatsiya – bu bir vaqtning o‘zida notenglikning ham sababi, ham oqibatidir. Jamiyatda bir qatlamga taalluqli kishi ma‘lum bir vaqt o‘tgach, boshqasiga o‘tish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, kam daromadli kishi o‘zining iqtidori va tadbirkorligi tufayli yuqori ijtimoiy maqomga erishishi mumkin. Jamiyat hayotidagi tabaqalanish muammosining tahlilida ikki xil yo‘nalish mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi, sinfiylik tamoyiliga asoslansa, ikkinchisi, sotsial stratifikatsiya nazariyasiga tayanishni tashkil qiladi. Sotsial stratifikatsiya masalasi faqat hozirgi sharoitning emas, balki insoniyat mavjudligidan xabar beruvchi qadimgi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, hodisa fan tarixida faol tadqiq qilingan.

Ayniqsa, qadimgi Yunoniston falsafasida unga katta e‘tibor qaratilgan. Jumladan, Platon “Davlat” va “Qonunlar” asarlarida, Aristotel esa “Siyosat” asarida ideal jamiyat loyihasini ishlab chiqar ekanlar, sotsial struktura elementlariga asosiy e‘tiborni qaratganlar. “Har bir davlatda biz uch turdagi fuqarolar: juda ham boy, juda ham kambag‘al va bu ikkisining o‘rtasida turganlarni uchratamiz. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘rtahollik hamma farovonliklardan afzaldir”[2].

Aristotel shunday xulosaga keladiki, unga muvofiq, o‘rtahol fuqarolardan tashkil topgan davlat eng yaxshi tuzum bo‘lib, uning fuqarolari ko‘proq bexavotirlikda bo‘lishadi. Ular kambag‘allarga o‘xshab boshqalarning mol-mulkiga ko‘z olaytirmaydilar, boshqalar esa o‘rtaholga tegishli bo‘lgan mulkka tajovuz qilishmaydi [3].

Sotsial mobillik (lotincha, “мобилис” –harakatchan) –individ yoki ijtimoiy guruhning jamiyat ijtimoiy tuzilmasida tutgan o‘rni, joyini (sinf, ijtimoiy guruhga mansublik va hokazo) o‘zgartirishida ijtimoiy harakatchanligini nazarda tutadi. Ushbu hodisa bois kishining jamiyatda

tutgan ijtimoiy maqomi o'zgarib boradi. Sotsial mobillik jamiyat taraqqiyoti davomida ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq kechuvchi jarayon sanaladi. Sotsial transformasiyalar, ularning tabiati qanday bo'lishidan qat'iy nazar sotsial mobillik oqimlarining kuchayishiga olib keladi.

Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasining asoschilarida biri bo'lmish Sorokin ijodiga to'xtalib o'tsak, xo'sh Sorokin bu nazariyalari bilan bizga nima demoqchi?

O'zining sotsial stratifikatsiya nazariyasida Sorokin har qanday jamiyat bir turli emasligini, uni tashkil etuvchi qatlamlar bir qator mezonlarga ko'ra aniqlanishini tushuntiradi: mulkiy tengsizlik, ma'lumotiga ko'ra tengsizlik. Sotsial mobillik nazariyasida u bir ijtimoiy qatlamdan boshqasiga o'tish jarayonini tushuntirib o'tadi.

Sotsial mobillik - sotsial holatda harakatlanish demakdir, jamiyatda doimiy ro'y beradigan, insonlarning o'z mavqeyini o'zgartirishi. Sorokin insonlar ular yordamida o'zining maqomlarini o'zgartiradigan asosiy kanallarni (liftlar) — ma'lumot, armiya, cherkov, biznes - ajratib ko'rsatadi.

Sorokin jamiyat insonlar ham jismoniy jihatdan, real, ham shartli tarzda, atrof-muhitdagilar va o'zining fikriga ko'ra ko'chib yuradi, deya tadqiqotlarga o'zining katta hissasini qo'shadi.

Ko'chishlarni mustahkamlash uchun u sotsial shkalalar bilan bog'liq tushunchalarni kiritadi:

- vertikal va gorizontaal mobillik (gorizontaal ~ maqomni o'zgartirmagan holda, vertikal - maqomni o'zgartirgan holda);

- individual va guruhiy mobillik (butun bir guruhning jamiyatdagi maqomining o'zgarishi, ya'ni jamiyat bahosining o'zgarishiga guruxiy mobillik deyiladi. Masalan, XX asming 60-yillarida fiziklarning avtoriteti o'sgan);

- o'suvchi va pasayuvchi dinamika, maqom ko'tarilganda o'suvchi, tushganda - pasayuvchi (1917-yil inqilobidan keyin dvoryanlarda pasayuvchi, ishchi va dehqonlarda o'suvchi dinamika kuzatilgan)[4].

Sorokin sotsial mobillik ijobiy hodisa bo'lib demokratik, dinamik jamiyatlarga xos degan xulosaga keladi. Faqatgina butun bir jamiyat dinamik harakat, keskin mobillik holatiga tushib qolgan vaziyat bundan mustasno. Bu inqirozni anglatadi, beqrorlik, jamiyat uchun ma'qul bo'lmagan mobillik, ammo boshqa holat - zid vaziyat -totalitar jamiyatlarga xos hech qanday mobillikning yo'qligi. Amerikalik sotsiologlar Amerika uchun eng optimal sotsial mobillik sifatida har bir tozalovchining millionerga aylanishi aksiomasini oladilar.

P. Sorokin mobillik tushunchasini keng iste'molga kiritdi va uning tayanch mohiyatini ochib berdi. Uningcha, sotsial mobillik "har qanday individ faoliyati orqali yaratilgan yoki modernizatsiyalashgan sotsial ob'ekt (qadriyat)ning bir ijtimoiy pozitsiyadan ikkinchisiga

o'tishidir". P. Sorokin sosial mobillikda statik va dinamik fazalarni ajratib ko'rsatadi. Sotsial mobillikning statik fazasida tartiblovchilik roli qadriyatlar tizimiga tegishli bo'ladi. Bunda kishining ko'chib yurishi aniq o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlar doirasida sodir bo'ladi. Sotsial mobillikning har qanday turida o'lchov mezonlari iqtisodiy, siyosiy, kasbiy-professional pozitsiyalar bo'lib, ular kishining mobilligi orqali yengib o'tiladi va bir holatdan ikkinchisiga o'tish sodir bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, turli sotsiologlar tomonidan Sorokin ta'limotining yo'nalishlari, nazariya va konsepsiyalari quyidagicha qayd etiladi: sotsial buzilishlar konsepsiyasi, inqilob sotsiologiyasi, agrar sotsiologiya, konvergensiya nazariyasi, sotsiomadaniy dinamika nazariyasi, sotsial stratifikatsiya va mobillik nazariyalari, integralizm, va h.k. Sorokin dunyo tarixiy sahnasida yangi sotsiomadaniy integral siklning o'sishi va hukmronligini bashorat qilib, uning inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'lishini tahlil qildi, u turlicha dunyoqarash yo'nalishlarining o'zaro singib ketishi va integratsiyasi xususiyatlarini ochib berdi.

REFERENCES

1. Diana Kendall. *Sociology in Our Times: The Essentials. Tenth Edition.*—Boston, 2016. — P. 201.
2. Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 3. Часть 2. // Политика.— Москва: «Мысль», 1983. — С. 508.
3. Qarang: Крауцеинсо Л.И. Соццолотя n 2 гр. Класнчссккс теори» иерес Сфшму социологического воображения. — М.: Юрайт, 2014. —С. 506-507.
4. Jiyannurodova Gulnoz Sherbutayevna *Sotsiologiya tarixi/darslik/.*-Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
5. Sherbutayevna J. G. YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO 'NALISHI SIFATIDA //ZAMONAVIIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Gulnoz J., Bunyod N. YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISH–USTUVOR VAZIFA //ZAMONAVIIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
7. Farfiyev B.A. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2022 – 352 b.